



**XIV ASRGA OID “KITABU BULG`ATIL MUSHTAQ FI LUG`ATAT TURK
VAL QIFJAQ” QO`LYOZMASINING QIYOSIY –LINGVISTIK TAHLILI,
“JONIVORLAR NOMLARI” FASLI MISOLIDA**

Ganiyeva Barchinoy
NamDU magistr

***Annotatsiya.** Turkiy tillar eng qadimiy tillardan hisoblanib hozirga qadar juda ko`plab dunyo tillarining asosini tashkil etib kelmoqda , shu jumladan o`zbek tilimiz ham turkiy tillar oilasiga mansub ekanligi hech kimga sir emas. Tilimiz tarixini kelib chiqishini o`rganish , albatta o`zligimizni anglash demakdir. Turkiy tillarni o`rganish XIX – XX asrlarda boshlangan bo`lsada hali ko`rib chiqilmagan manbalar , o`rganilmagan matmlar juda ko`p. Ulardan biri Jamoliddin abu Muhammad Abdulloh at-Turki tomonidan yozilgan “Kitabu bulg`atil mushtaq fi lug`otit turk val qifjaq” qo`lyozmasidir . bu qo`lyozma XIV asrga oid bo`lib, lug`at shaklida yozilgan . undagi so`zlarning aksariyati tilimizda o`zgarishlarsiz qo`llanilib kelinayotgani tilimizning naqadar qadim tarixga egaligini ko`rsatib turibdi. Quyida bu qo`lyozmaning ikkinchi bobi, “Jonivorlar nomlari va boshqalar” nomli faslidan ayrim so`zlarning o`zbek tili bilan qiyosiy tahlili keltirilgan.*

***Kalit so`zlar:** turkiy til, til oilasi, qiyosiy tahlil, lingvistik tahlil, fonetik, morfologik, o`zgarish.*

***Annotation.** Turkic languages are one of the most ancient languages and are the basis of many world languages, including our Uzbek language, it is obvious that it belongs to the family of Turkic languages. Studying the history of the origin of our language means realizing our minority. Although the study of Turkic languages began in the 19th-20th centuries, there are still a lot of unexamined sources and unorganized texts. One of them is the manuscript "Kitabu bulgatil mushtaq fi lugotit turk wal qifjaq" written by Jamaluddin Abu Muhammad Abdullah at-Turki. This manuscript belongs to the 14th century and is written in the form of a dictionary. the fact that most of the words in it are used without changes in our language shows how old our language is. Below is given a comparative analysis of some words from the second chapter of this manuscript, "Names of animals and others" with the Uzbek language.*

***Key words:** Turkic language, language family, comparative analysis, phonetic, morphological changes.*

Turkiy tillar juda qadim tarixga ega bo`lib, ularni, jumladan o`zbek tilini o`rganishda qadimgi turkiy tilda yaratilgan qo`lyozmalar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday yodgorliklardan turkiy run yozuvlari, qadimgi uyg`ur yozuvlari, qoraxoniylar, xorazmshohlar davri yodgorliklari, Oltin O`rda qipchoq va o`g`uz tillarida yozilgan yozma manbalari kabilar shular sirasiga kiradi. Ulardan oltin o`rda yozma yodgorligi bo`lmish Jaloliddin at-Turki tomonidan yozilgan “Kitabu bulg`atil mushtaq fi lug`otit turk val qifjaq” qo`lyozmasi o`zbek olimlari tomonidan hali qo`l urilmagan qadimgi turkiy tildagi qo`lyozmadir. Qo`lyozma arab yozuvida yozilgan bo`lib, arabcha so`zlarning qipchoq – turkiycha tarjima lug`ati sifatida yaratilgan. Kitobning so`zboshisida kitob nomi va muallif ismi Jamoliddin abu Muhammad Abdulloh at-Turki to`liq yozilgan. Bu qo`lyozmani leksik, morfologik va fonetik tahlil qilish o`zbek

tilimizning leksik boyligi qanchalik qadim tarixga borib taqalishini ko`rsatuvchi yana bir isboti deyish mumkin.

	فَصْلٌ فِي أَسْمَاءِ الْوُجُوشِ وَغَيْرِهَا		
	Jonivorlar nomlari va boshqalar fasli		
1.	الصَّيْدُ الْقَنْصُ	أُو	ov
2.	السَّبْعُ	أَرْسَلَانُ	arslon
3.	الفَهْدُ	بَرْسُ	Gepard, leopard
4.	النَّمْرُ	قَبْلَانُ	qoplon
5.	الذَّيْبُ	بُرُو	Bo`ri
6.	الأَرْنَبُ	قَيْنُ	quyon
7.	وَيَقَالُ	دَوْشَعْنُ	tovushqon
8.	التَّغْلُبُ	تَلْكُو	tulki
9.	بَقْرَ الْوَحْشِ	صَوْرُ كَيْكٍ	antilopa
10.	الغَزَالُ	كَيْكٍ	kiyik

“Kitabu bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasini tadqiq qilar ekanmiz unda har bir bob kichik mavzu ya`ni fasllarga bo`linganligini ko`rish mumkin. Yuqoridagi jadvalda “bulg`atil mushtaq” da keltirilgan “hayvonlar ismlari” bobidan ayrim so`zlar berilgan. Bu so`zlarning aksariyati hozirgi o`zbek tilida o`zgarishsiz saqlanib qolgan. Ulardan birinchi so`z “ov” so`zini olsak bu so`z hozirgi tilimizda aynan shunday saqlanib qolgan, faqat qipchoq-turkiy variant arab yozuvida “av“ shaklida bo`lsa ham “o” o`qiladi. Bu so`zni “av” arabcha “yoki” so`zi bilan shaklan bir xil bo`lsada yanglish xulosaga kelmaslik lozim . sababi , muallif qipchoq – turkiycha so`zlarni alohida ajratib yozgan, qolaversa, uning arabcha variantining tarjimasi ham “ov”demakdir. Bu faslni muallif “ov” so`zi bilan boshlab, unga aloqador jonivorlar nomlarini birma bir keltirib o`tgan.

“Arslan” ya`ni “arslon“ so`zi hech qanday o`zgarishlarsiz tilimizda “sher” ma`nosida ishlatiladi. “Bars” so`zi esa qipchoq-turkiy tildan tarjimasi “gepard”, “leopard” kabi mushuksimon yirtqichlar ma`nosini anglatadi. Bunga misol tariqasida XIV asrga oid Nosiruddin Rabg`uziyning “qissasi Rabg`uziy” dan olingan quyidagi parchani keltirish mumkin:

“Sulaymon yuz ming arslon, yuz ming bars, yuz ming qoplon , yuz ming bo`ri, yuz ming shag`ol ko`mak izdi.”¹

¹Nosiruddin Rabg`uziy “Qissasi Rabg`uziy” T.:”Yozuvchi nashriyoti “1991 40-b.



Yuqoridagi parchada “Bulg`atil mushtaq”da berilgan “arslon”, “bars” kabi so`zlardan tashqari “qoplon” , “bo`ri” kabi so`zlarni aynan bir xil ketma ketlikda ko`rishimiz mumkin. Shu o`rinda fikr tug`iladi balki “Bulg`atil mushtaq” qo`lyozma lug`ati bilan “Qissasi Rabg`uziy “o`rtasida qandaydir bog`liqlik bordek tuyuladi. Ya`ni bu qo`lyozma “Qissasi Rabg`uziy”ni tarjima qilish uchun foydalanadigan lug`at sifatida yaratilgandek bo`ladi. Bunday bo`lishi albatta tabiiy, avvalambor bu ikkala kitob ham bir davrga oid bo`lib, shu sabab undagi ko`plab so`zlar juda o`xshash va aksariyati bir xil shakl va mazmunga ega. Qolaversa, Qissasi Rabg`uziy” Qur`ondagi qissalarni o`z ichiga olgan va “Bulg`atil mushtaq”da ham Qur`ondagi so`zlarning qipchoq -turkiycha tarjimasini berilgan bo`lishi mumkin. Bunga yuqoridagi “arslon”, “bars”, “qoplon”, “bo`ri” so`zlarining ketma ketligi isbot bo`la oladi. Bu so`zlarning barchasi o`zbek tilida ham qipchoq-turkiy tilda ham aynan bir xil. Navbatdagi so`z “quyon” qipchoq –turkiy tilda “quyan” shaklida kelgan va o`zgarishga uchramagan so`zdir. Uning yana bir sinonimi “davushqon” ya`ni “tovushqon” so`zi esa tilimizda quyonning bir turi sifatida ishlatiladi , bu so`zni tahlil qilsak biroz tovush o`zgarishiga uchraganini ko`rishimiz mumkin. Ya`ni, “d” jarangli til undoshi “t “ jarangsiz til undoshiga almashgan.” Tulki” so`zi ham tilimizda hech bir o`zgarishsiz mavjud. “savaz kiyik” ya`ni “antilopa” so`zi esa tilimizda bu shaklda mavjud bo`lmay, undagi “kiyik” so`zining o`zi o`zgarishsiz boshqa hayvon nomini anglatadi. Bu so`zning “antilopa” ma`nosini anglatishini biz uning arabcha variantini tarjima qilish orqali aniqlashimiz mumkin. Shu bilan birga “kiyik so`zining o`zi ham berilgan bo`lib , bu qipchoq-turkiycha so`z aynan bir ma`noda va shaklda o`zbek tilida mavjuddir.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki , hozirgi o`zbek tilimizda keng qo`llanilayotgan so`zlarning aksariyati qadimgi turkiy tildan asrlar oshib ham deyarli o`zgarishsiz saqlanib qolgan . buning isboti sifsti yuqorida tahlili keltirilgan “Kitabu bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasidagi “ jonivorlar nomlari” bo`limidagi ayrim so`zlar misolida ko`rib chiqdik. XIV asrga oid bu qo`lyozmadagi boshqa barcha boblardagi so`zlarda ham o`xshashlik ko`p lekin jonivorlar nomlari, sonlar, ravishlarni tahlil qilinsa, ularda deyarli juda kam o`zgarishni uchratamiz. Bu albatta , bizning o`zbek tilimizning naqadar boy til ekanini ko`rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiruddin Rabg`uziy “Qissasi Rabg`uziy” T.:”Yozuvchi nashriyoti “1991 40-b.
2. Hasan, Botirbek. “Arabcha- o`zbekcha boshlang`ich lug`at”, T.: “Movaraunnahr”, 1996.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati . “O`zbekiston nashriyoti” T.: 2021



4. O`zbekcha- arabcha lug`at: 7ming so`z va ibora// Lug`at tuzuvchilar: N. Ibrohimov, B. Hasanov, O Musayev va boshq.; Mas`ul moharrir: A. Rustamov/- T.: .O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000.
5. Гайнутдинова Г. Р. Историко-лингвистический анализ тюрко-татарского письменного памятника XIV века Джамал ад-Дина ат-Турки "Китабу булгат ал-муштак фи лугат ат-турк ва-л-кифчак". Диссертация. Казан.,2005

